

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT
INSTITUTI**

NURUTDINOVA FERUZA MUIDINOVNA

**BIOKIMYO FANIDAN TALABALAR KOMPETENTLIGINI
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA LOYIHALASHTIRISH
NAZARIYASI VA METODIKASI
(tibbiyot OTMlari misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертаций доктора наук (DSc)

Content of the dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)

Nurutdinova Feruza Muidinovna

Biokimyo fanidan talabalar kompetentligini zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalashtirish nazariyasi va metodikasi (tibbiyot OTMlari misolida)..... 3

Нурутдинова Феруза Муидиновна

Теория и методика проектирования компетенций студентов по биохимии на основе современных подходов (на примере медицинских ВУЗов)..... 25

Nurutdinova Feruza Muidinovna

Theory and methodology of designing students' competencies in biochemistry based on modern approaches (using medical universities as an example)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT
INSTITUTI**

NURUTDINOVA FERUZA MUIDINOVNA

**BIOKIMYO FANIDAN TALABALAR KOMPETENTLIGINI
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA LOYIHALASHTIRISH
NAZARIYASI VA METODIKASI
(tibbiyot OTMlari misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.4.DSc/Ped1007 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bsmi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Jo‘rayev Husniddin Oltinboyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Amonov Muxtor Raxmatovich
texnika fanlari doktori, professor

Axadov Ma’murjon Sharipovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyev Alijon Ro‘zikulovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil 25 dekabr soat 12³⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 200126, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (+998-95) 911-00-50. e-mail: info@bsmi.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan), (Manzil: 200126, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (+998-95) 911-00-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 12 dekabr kuni tarqatildi.

(2025 yil 12 dekabrda 66 raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.J. Teshayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

N.Q. Dustova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori (DSc)

A.R. Obloqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning zamonaviy mexanizmlari hamda ularning kasbiga yo'naltirilgan kompetentligini rivojlantirishga asoslangan yondashuvlar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Tibbiyot yo'nalishi ta'lim jarayonida kasbiy amaliyotga motivatsion yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratishda moslashuvchan yondashuvlarni qo'llash orqali talabalarda kasbiy mahorat hamda kompetentsiyalarni rivojlantirish dolzarblik kasb etmoqda. YuNESKO tomonidan belgilangan 2030-yilgacha barqaror rivojlanishning aniq maqsadlari doirasida ta'limga oid dasturlarni takomillashtirish, ularning ochiqqligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bo'lajak shifokorlarda kasbiy etika va madaniyat, mas'uliyat va javobgarlikni shakllantirishga oid ta'lim resurslarini modernizatsiyalash amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy o'quv modullari talabaning individual o'rganish tempini qo'llab-quvvatlab, nazariya va amaliyotning uyg'unligini ta'minlaydi. Shuningdek, xalqaro talablarga mos o'quv dasturlarini joriy etish orqali tibbiyot oliygohlarida global standartlarga javob beradigan shifokorlarni tayyorlash imkoniyati kengaymoqda. Bu jarayonlar natijasida, talabalarning professional kompetentlik darajasi oshib, ularning sog'liqni saqlash tizimida samarali faoliyat yuritishlari uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda.

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida talabalarning bilimlarini tizimli rivojlantirish, kasbga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish orqali ularni kasbiy faoliyatiga samarali tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tibbiyot oliy ta'lim muassasa (OTM)larida talabalarning klinik-diagnostik kompetentligining yuqori darajasini ta'minlaydigan yondashuvlar, texnologiyalar va interfaol usullarni takomillashtirishga urg'u berilmoqda. Rivojlangan davlatlarda zamonaviy mutaxassisning kasbiy kompetentsiyasi sifatida mas'uliyatni shakllantirish muammolarini kompleks o'rganish va zarur yechimlarni topishga yo'naltirilgan dasturlar, loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyat egallamoqda. Shu bilan birga, tibbiy ta'lim jarayoniga simulyatsion laboratoriyalar, virtual klinik mashg'ulotlar va amaliyotga yo'naltirilgan treninglarni keng joriy etish orqali talabalarning amaliy tayyorgarligi kuchaytirilmoqda. Xalqaro akkreditatsiya talablari asosida ishlab chiqilgan kompetensiyaviy model va o'quv standartlari talabalarning mustaqil fikrlashi, klinik qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning muhim vazifalarini belgilaydi¹. Shuningdek, aynan kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish hamda oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanish borasida uzviy bog'liqlik, samarali muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish, ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriya, darslik va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish kabi ustuvor maqsadlar belgilangan². Bu borada ta'limning barcha bosqichlari qatori oliy ta'lim

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 8 – oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” farmoni.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 12 – avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida” qarori.

mazmunini modernizatsiyalash, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va mas'uliyatni shakllantirish hamda bu jarayonga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yana rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarida faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-son qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Talabalarga shifokorlar ega bo'lishi kerak bo'lgan umrbod ta'lim, ochiq izlanish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, - degan fikrlarni ilgari surish maqsadida dunyoning qator tibbiyot va salomatlik ilmiy-tadqiqot markazlari hamda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida, xususan, Jorj Vashington universiteti Tibbiyot va salomatlik fanlari fakulteti, Kennesaw universiteti, Illinoys universiteti (AQSh), Dalian tibbiyot universiteti (DMU) biokimyo va molekulyar biologiya kafedras, General Ser Jon Kotelavala Mudofaa Universiteti (Angliya), Pekin universiteti

³Afshar M, Han Z. Teaching and Learning Medical Biochemistry: Perspectives from a Student and an Educator. *Med Sci Educ.* 2014;24(3):339-341. doi: 10.1007/s40670-014-0004-7. PMID: 25815241; PMCID: PMC4370413; Powers JL, Kiesman NE, Tran CM, Brown JH, Bevilacqua VL. Lactate dehydrogenase kinetics and inhibition using a microplate reader. *Biochem Mol Biol Educ.* 2007 Jul;35(4):287-92. doi: 10.1002/bmb.74. Epub 2007 Jul 3. PMID: 21591107; Surapaneni, Krishna M., & Tekian, A. (2013). Concept mapping enhances learning of biochemistry. *Medical Education Online*, 18(1). <https://doi.org/10.3402/meo.v18i0.20157>; Yan Q, Ma L, Zhu L, Zhang W. Learning effectiveness and satisfaction of international medical students: Introducing a Hybrid-PBL curriculum in biochemistry. *Biochem Mol Biol Educ.* 2017 Jul 8;45(4):336-342. doi: 10.1002/bmb.21046. Epub 2017 Feb 3. PMID: 28696053; Marikar FMMT, Wadige KNH, Lakmuthu SD, Priyanthi MYW, Perera PAJ (2015) Evaluation of the Teaching Approaches of Biochemistry for Medical Students: A Sri Lankan Case Study. *J Community Med Health Educ* 5:359. doi:10.4172/2161-0711.1000359; Chen H, Ni JH. Teaching arrangements of carbohydrate metabolism in biochemistry curriculum in Peking University Health Science Center. *Biochem Mol Biol Educ.* 2013 May-Jun;41(3):139-44. doi: 10.1002/bmb.20695. Epub 2013 May 4. PMID: 23649913; Gao F, Li J, Xu J, Jia S, Xu L, Li S, Xu GT, Lu L. Evaluating the appropriateness of AccessMedicine in integrated biochemistry learning for chinese medical students. *Biochem Mol Biol Educ.* 2019 May;47(3):272-278. doi: 10.1002/bmb.21223. Epub 2019 Feb 6. PMID: 30725505; Zhao, J., Li, Y., Yan, B., Jia, L., Li, X., Wang, L., Liu, X. and Yao, L. (2014) Twenty-Year Reform of Teaching Biochemistry and Molecular Biology at Fourth Military Medical University in China. *Open Journal of Social Sciences*, 2, 269-274. doi: [10.4236/jss.2014.24029](https://doi.org/10.4236/jss.2014.24029); Avci F. Teaching the "acid-base" subject in biochemistry via virtual laboratory during the COVID-19 pandemic. *Biochem Mol Biol Educ.* 2022; 50(3): 312–318.; Çingil Baris, Ç. The use of virtual laboratory in teaching respiration subject in the Covid-19 process. *Biochem Mol Biol Educ.* 2022; 50:254–60. <https://doi.org/10.1002/bmb.21610>; Roach JD, Nauman A, Mahmud S, Chaari A, Bondaruk M. A Capstone Laboratory theme investigating properties of non-steroidal anti-inflammatory drugs and their solubilization by cationic surfactant micelles. *Biochem Mol Biol Educ.* 2022 Mar;50(2):173-180. doi: 10.1002/bmb.21602. Epub 2022 Jan 13. PMID: 35023258; Ashkanani A, Ashkanani G, Bayraktar N, Subhash E, Chaari A. Converting a formerly in-person biochemistry course based undergraduate research experience to online teaching during the COVID-19 pandemic. *Biochem Mol Biol Educ.* 2022; 50: 104–113.; O'Sullivan, S., Campos, L.A. & Baltatu, O.C. "Involve Me and I Learn": Active Learning in a Hybrid Medical Biochemistry First Year Course on an American-Style MD Program in the UAE. *Med.Sci.Educ.* 32, 703–709 (2022).; Kim AM, Gibbons JA, Speed CJ, Macaulay JO. Making creativity explicit: A workshop to foster creativity in biomedical science education. *Biochem Mol Biol Educ.* 2023; 51(6): 644–652.; Novelli EL, Fernandes AA. Students' preferred teaching techniques for biochemistry in biomedicine and medicine courses. *Biochem Mol Biol Educ.* 2007 Jul;35(4):263-6. doi: 10.1002/bmb.73. Epub 2007 Jul 3. PMID: 21591103.

salomatlik fanlari markazi (PKUHSC) biokimyo va molekulyar biologiya kafedrası, Shanxaydagi Tongji universiteti tibbiyot fakulteti Biokimyo va molekulyar biologiya hamda regenerativ tibbiyot kafedrası (Xitoy), Istanbul universiteti-Cerrahpasa, Tabiiy-ilmiy ta'lim kafedrası (Turkiya), Weill Cornell Medical College-Qatarning Tibbiyotdan oldingi ta'lim kafedrası (BAA), Ain Shams University, Monash universiteti, Biotibbiyot kashfiyoti instituti, San-Paulu davlat universiteti Kimyo va biokimyo kafedrası bir qator olimlari, professor-o'qituvchilari tadqiqotlar olib bormoqda.

Keyingi yillarda biokimyo fanini o'qitishda o'quv dasturini isloh qilish talaba bilimidagi cheklovlar, biokimyo mazmunining klinik sharoit bilan chambarchas bog'liqligi, ma'ruza asosida o'qitishdagi kamchiliklar va erta klinik amaliyotga o'qitish hamda malaka talablari tufayli muammoli o'qitishni (PBL) biokimyo ma'ruzalari bilan birlashtirib o'qitish uchun joriy qilingan yangi o'quv dasturi islohoti "Gibrid-PBL"ni tashkil qilish borasida bir qator jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar ilmiy natijasiga erishgani tahlillarda keltirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etib, biokimyoning statik, dinamik, molekulyar va klinik asoslari bo'yicha chuqur bilimga ega, biokimyoviy jarayonlarning mohiyatini anglaydigan va nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay oladigan mutaxassislarni tayyorlash dolzarbdır. Shu bois biokimyo fanini o'qitishda amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'lim bilan bir qatorda "muammoli vaziyatlar" usuli va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim bo'lib, bu boradagi yondashuvlar A.G. G'aniyev, D.A. Shayzakova, G.S. Ergashova, Sh.T. Yuldashova, Yu.G. Mahmudov, Sh.A. Mamajanova, E.U. Eshchanov va Sh.Sh. Begmatov tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Respublikamiz olimlari N.N. Azizxo'jaeva (2000 y.), U.Sh. Begimqulov (2007 y.), H.O. Jo'rayev (2017 y.), U.I. Inoyatov (2013 y.), N.A. Muslimov (2015 y.), J.O. Tolipova (2011 y.), F.R. Yuzlikaev va M.Sh. Axadovning ilmiy izlanishlarida aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik va integral-pedagogik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

MDH mamlakatlari olimlari O.N. Griban (2019 y.), A.I. Velikanova (2023 y.), T.V. Nikulina (2017 y.), E.V. Aleksandrova (2021 y.), O.I. Mezenseva (2010 y.), A.E. Gubareva (2010 y.), A.D. Goneev (2016 y.), A.I. Artyuxina (2007 y.), N.I. Jukova (2021 y.), S.A. Tarasova (2019 y.), K.E. Egorova (2023 y.), E.L. Grinchenko (2020-2024 yy.), O.I. Kurdimanova (2023 y.), L.V. Matushkina (2018 y.), I.B. Dotsenko (2024 y.), E.S. Polat (2006 y.), N.V. Kuzmina (2023 y.), M.I. Lukyanova (2019 y.), A.S. Markova (1995 y.), V.A. Slastenin (2002 y.), T.M. Sarokina (2022 y.) va boshqalar tomonidan talabalarda kompetentlikni shakllantirish hamda rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, kasbiy-pedagogik tayyorlash samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

G. Spenser (ijodkorlik va ta'lim kompetentliklari bo'yicha tadqiqotlar 2010–2025 yillar orasida davom etmoqda; masalan, OCED hisoboti va u bilan bog'liq tadqiqotlar 2013 yilda e'lon qilingan.), B. Blum, R. Mohan (2014 y.), H. Miyakava (1997-2000 yil atrofida Yaponiya ta'lim tadqiqotlari va texnologiya ta'limi bo'yicha faol ilmiy ishlar olib borgan), G. Kulanthaivel (2005-2020 yy.), Y. Xuqin (2020-2025 yy) kabi xorijiy mamlakatlar olimlarining tadqiqotlarida ta'limda kreativlik, talabalarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, kompetentlik masalalari, kasbiy-pedagogik yetuklik muammolari, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish nazariyasi va amaliy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar, adabiyotlar tahlili bugungi kunda tibbiyot OTMlarida “Biokimyo” fanini o‘qitish asosida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish noan’naviy o‘qitish metodlari, zamonaviy ta’lim imkoniyatlari va vositalaridan foydalangan holda faoliyatga yo’naltirib o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Buxoro davlat tibbiyot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tibbiyot oliy ta’lim muassasasi talabalarining biokimyo fanidan kasbiy va klinik-diagnostik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalashtirish nazariyasi va metodikasini takomillashtirish va amaliyotga tadbqiqot etishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida biokimyo fanini o‘qitish jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida loyihalashtirish metodikasini ishlab chiqish; bunda “bosqichlar zanjiri” infografik modeli asosida klinik ko‘nikmalarni, multidisiplinar hamkorlikni va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ularning samaradorligini baholash;

biokimyo fanidan klinik-diagnostik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi integratsiyalovchi soft-skills (differensial tashxis qo‘yish, optimal davolash yo‘lini tanlash, klinik tafakkur va analitik fikrlash)ning ta’lim jarayonidagi o‘rmini nazariy jihatdan asoslash va ularning samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqish;

neyrotarmoq, neyropedagogika va neyropsixologiya tamoyillarini amaliy tibbiy ta’lim jarayoniga integratsiyalovchi simulyatsion texnologiyalar (3D modellar, smart-illovalari, virtual laboratoriyalar) asosida talabalarning kasbiy-sohaviy tayyorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish va uni sinovdan o‘tkazish;

biokimyo fanini o‘qitish jarayonida talabalarning innovatsion kompetentligini baholashga mo‘ljallangan mezon va indikatorlarni takomillashtirib, bunda loyiha va hackathonlarda ishtirok etishga tayyorgarlik, kreativ g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyati, jamoaviy va ko‘p-muhitli vaziyatlarda hamkorlik ko‘nikmalarining ilmiy asoslangan diagnostika tizimini ishlab chiqish;

“bosqichlar zanjiri” infografik modeli, integratsiyalovchi soft-skills va simulyatsion texnologiyalarni birlashtiruvchi kasbiy-sohaviy tayyorlash metodologiyasi asosida biokimyo fanidan klinik fikrlash, tashxis qo‘yish va muammoli holatlarda kreativ yechim ishlab chiqish kompetensiyalarini shakllantiruvchi ta’lim konsepsiyasini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tibbiyot OTM talabalarida “Biokimyo” fanini o‘qitishning zamonaviy yondashuv asosida kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni tanlangan bo‘lib, tajriba-sinov ishlarida Buxoro davlat tibbiyot instituti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Toshkent tibbiyot Akademiyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining 980 nafar respondent-talabasi ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini tibbiyot oliy ta’lim muassasasi talabalarining biokimyo fanidan kompetentligini zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalashtirish nazariyasi va metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot muammosiga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalar, adabiyotlar, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-me‘yoriy hujjatlarning tizimli tahlili, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik (kuzatish, suhbat, tashxislash, so‘rovnoma, test), tajriba-sinov, monitoring natijalarini matematik statistik metodlari yordamida qayta ishlash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

biokimyo fanini zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalashtirish metodikasi: tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitish jarayonida amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan klinik ko'nikmalar va multidisiplinar hamkorlikni rivojlantiruvchi "bosqichlar zanjiri" infografik yondashuvi asosida loyihalashtirish metodikasi ishlab chiqildi va uning yordamida talabalarni kasbiy-sohaviy faoliyatga tizimli tayyorlash hamda baholash imkoniyati aniqlashtirildi;

integratsiyalovchi soft-skillslar va klinik-diagnostik kompetensiya: talabalarning biokimyo fanidan klinik-diagnostik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan integratsiyalovchi soft-skills (differensial tashxis qo'yish, optimal davolash yo'lini tanlash, klinik tafakkur va analitik fikrlash) ta'lim jarayonidagi samaradorligini optimallashtiruvchi metodologik asos nazariy jihatdan isbotlandi;

simulyatsion va neyro-pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish: neyrotarmoq, neyropedagogika va neyropsixologiya tamoyillarini amaliy tibbiy faoliyatga integratsiya qilib, simulyatsion texnologiyalar (3D texnologiyalari, smart-illovalar va virtual laboratoriyalar) asosida kasbiy-sohaviy faoliyatga tayyorlash metodikasi ishlab chiqildi va uning startap loyihalarda talabalar kreativ ishtirokini oshirishdagi samaradorligi aniqlashtirildi;

innovatsion kompetentlikni baholash mezonlari va indikatorlari: biokimyo fanidan talabalar innovatsion kompetentligini baholash uchun mezonlar va indikatorlar takomillashtirildi; ular loyihalar va hackathon⁴larda ishtirokka tayyorgarlik, tibbiy sohada kreativ g'oyalarni ilgari surish qobiliyati, jamoaviy va ko'p-muhitli vaziyatlarda samarali hamkorlik ko'nikmalari asosida ilmiy jihatdan dalillandi;

ta'lim konsepsiyasi va amaliy determinant: "bosqichlar zanjiri" infografik yondashuvi, integratsiyalovchi soft-skillslar hamda simulyatsion texnologiyalarni qamrab oluvchi kasbiy-sohaviy tayyorlash metodikasi asosida ishlab chiqilgan ta'lim konsepsiyasi biokimyo fanini o'qitishda klinik holatlarni tahlil qilish, tashxis qo'yish va muammoli vaziyatlarga kreativ yechim topish samaradorligini oshiruvchi muhim determinant sifatida ilmiy jihatdan isbotlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tibbiyot oliy ta'lim muassasasining bakalavriat bosqichi uchun biokimyo moduliga «Биологическая химия» va «Biokimyo» darsligi ikki tilda ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga joriy etildi;

biokimyo modulining maxsus boblari uchun «Lipidlar biokimyosi» hamda «Aminokislotalar va oqsillar almashinuvi biokimyosi» nomli o'quv qo'llanmalari yaratilib, o'quv jarayoniga tatbiq etildi;

talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida «Ovqat hazm qilish sistemasi, oqsillar gidrolizining 3D modeli va animatsiyalari» hamda «Limon kislotasi siklining smart-xaritasi» o'quv jarayoniga joriy qilindi;

talabalarning kasbiy kompetensiyasini nazorat qilishga xizmat qiluvchi «Biokimyo fanidan vaziyatli masalalar to'plami» nomli o'quv qo'llanmasi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi;

biokimyo moduliga oid ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitishga mo'ljallangan elektron resurslar va virtual-simulyatsion darslarni tashkil etish bo'yicha taklif hamda tavsiyalarni o'z ichiga olgan «Biokimyo fanidan interfaol usullardan foydalanib virtual-simulatsion mashg'ulotlarni tashkil qilish» nomli monografiya ishlab chiqilib amaliyotda qo'llanilmoqda.

⁴ ma'lum bir muammoni hal qilish yoki yangi g'oyani amalga oshirish maqsadida dasturchilar, dizaynerlar, loyiha menejerlari va boshqa mutaxassislarning qisqa muddatli intensiv va jamoaviy uchrashuvi

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi erishilgan natijalarni o'zida aks ettirgan respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlari, OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ushbu tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi, hamda, olingan natijalarining matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy qilinganligi, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tibbiyot oliy talim muassasalari talabalarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni zamonaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv jarayonida qo'llanadigan faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan ta'lim resursining, texnik, didaktik talablari, tarkibiy qismlari, biokimyo fanidan 3D interaktiv darsliklarni yaratish bosqichlari, talabalarining mustaqil faoliyat olib borishi, kasbiy-sohaviy faoliyatda kreativ yondashish, zamonaviy biokimyoning fanlararo integratsiyalashuvi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ta'limga to'la fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik texnologiyasini joriy qilish bilan fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari asosida faoliyat ko'rsatadigan texnologiyalarni yaratish, vujudga keladigan muammolarni nostandart g'oyalar bilan ijobiy yechish orqali ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, aholi sog'lom turmush tarzining yaxshilanishini ta'minlay oladigan o'z kasbining yetuk mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatining vujudga kelishida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Biokimyo fanidan talabalar kompetentligini zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalashtirish nazariyasi va metodikasi (tibbiyot OTMLari misolida) mavzusiga oid takliflar asosida:

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitish jarayonida amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan klinik ko'nikmalar va multidisiplinar hamkorlikni rivojlantiruvchi "bosqichlar zanjiri" infografik yondashuvi asosida loyihalashtirish metodikasi ishlab chiqildi va uning yordamida talabalarni kasbiy-sohaviy faoliyatga tizimli tayyorlash hamda baholash imkonini asoslovchi tavsiyalar "Биологическая химия" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug'i, 939735-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentligini tizimli ravishda shakllantirish hamda ularning amaliy faoliyatga yuqori darajada tayyorligini ta'minlashga erishildi;

talabalarining biokimyo fanidan klinik-diagnostik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan integratsiyalovchi soft-skills (differensial tashxis qo'yish, optimal davolash yo'lini tanlash, klinik tafakkur va analitik fikrlash) ta'lim jarayonidagi samaradorligini optimallashtiruvchi metodologik asos nazariy jihatdan asoslab berilgan takliflari "Biokimyo" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-son buyrug'i, 573688-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining biokimyo fanidan klinik-diagnostik qaror qabul qilish kompetensiyasi samarali shakllanib, ularning kasbiy va amaliy faoliyatga tayyorgarligini oshirishga xizmat qilgan;

neyrotarmoq, neyropedagogika va neyropsixologiya tamoyillarini amaliy tibbiy faoliyatga integratsiya qilib, simulyatsion texnologiyalar (3D texnologiyalari, smart-illovalar va virtual

laboratoriyalar) asosida kasbiy-sohaviy faoliyatga tayyorlash metodikasi ishlab chiqildi va uning startap loyihalarda talabalar kreativ ishtirokini oshirishdagi samaradorligi aniqlashtirildi (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 21-noyabrdagi 02/01-01-125-ma'lumotnomasi). Natijada, tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalarining biokimyo fanidan kasbiy kompetentligi innovatsion yondashuv asosida rivojlantirildi hamda amaliy kasbiy faoliyatga tayyorgarlik imkoniyati yaratildi;

biokimyo fanidan talabalar innovatsion kompetentligini baholash uchun mezonlar va indikatorlar takomillashtirildi; ular loyihalar va hackathonlarda ishtirokka tayyorgarlik, tibbiy sohada kreativ g'oyalarni ilgari surish qobiliyati, jamoaviy va ko'p-muhitli vaziyatlarda samarali hamkorlik ko'nikmalari asosida ilmiy jihatdan dalillangan tavsiyalar "Биологическая химия" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug'i, 939735-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarning innovatsion kompetentligi rivojlanib, startap va hackathonlarda ishtirok etish, kreativ g'oyalarni ilgari surish hamda jamoaviy hamkorlik ko'nikmalari samarali shakllanadi;

"bosqichlar zanjiri" infografik yondashuvi, integratsiyalovchi soft-skillslar hamda simulyatsion texnologiyalarni qamrab oluvchi kasbiy-sohaviy tayyorlash metodikasi asosida ishlab chiqilgan ta'lim konsepsiyasi biokimyo fanini o'qitishda klinik holatlarni tahlil qilish, tashxis qo'yish va muammoli vaziyatlarga kreativ yechim topish samaradorligini oshiruvchi muhim determinant sifatida ilmiy jihatdan isbotlandi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 09-sentabrdagi 03/40-2609-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, klinik holatlarni tahlil qilish ko'nikmalari shakllanib, ularning kasbiy kompetentligi nazariy va amaliy jihatdan rivojlandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda ma'ruza ko'rinishida bayon qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 35 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 11 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jumallarda nashr etilgan. Shuningdek, mavzu doirasida 5 ta darslik, 5 ta o'quv qo'llanma va 1 ta monografiya chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 240 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanidan talabalar kompetentligini zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalashtirishning nazariyasi asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishning dolzarbligi, mavjud holati, xorijiy tajribalar asosida hozirgi holati, zamonaviy yondashuv asosida talabalar kompetentligining

samaradorligini oshirish imkoniyatlari, hamda talabalar kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan shakl va metodlar yoritilgan.

Mamlakatimizda ta'lim islohotlarining zamonaviy bosqichi globallashtirish, axborot texnologiyalari rivojlanishi va jamiyat hayotining barcha sohalarida jadallik bilan yuz berayotgan o'zgarishlarga chambarchas bog'liq. Ta'lim tizimi oldida yangi, yanada yuqori talablarga moslashish, sifat va samaradorlikni oshirishga qaratilgan vazifalar qo'yilmoqda. Ayniqsa, oliy tibbiyot ta'limida kompetent yondashuv asosida kadrlar tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy axborot oqimining kengayishi sharoitida biokimyo fanidan talabalarga bilim berish jarayonida ularni mustaqil tahlil qilish, axborotni qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu esa ta'lim jarayonida ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Biokimyo fanining o'quv jarayonidagi roli tibbiy ta'limda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy faoliyatga tayyorlanish, ilmiy izlanishlarga yo'naltirish hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish nuqtayi nazaridan alohida o'rin tutadi. Shu sababli, fan asosida interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan, muammoli o'qitish metodlarini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin.

Masalan, Birlashgan Arab Amirliklaridagi Xalifa Universiteti tomonidan taqdim etilgan gibrid faol o'qitish modeli ("Meni jalb qiling va men o'rganaman") asosida tibbiy biokimyo fani bo'yicha MD darajasidagi dastur joriy etilgan bo'lib, bunda talabaning o'zlashtirish darajasi va ilmiy faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatilgan.

Xitoyning To'rtinchi harbiy tibbiyot universiteti biokimyo va molekulyar biologiya fanlari o'qitilishini 1980-yillardan buyon bosqichma-bosqich takomillashtirib kelmoqda. Bu jarayonda talabalar tomonidan boshqariladigan eksperimental kurslar, nazariy mashg'ulotlarni qayta tashkil qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan model muvaffaqiyatli joriy etilgan. 1994–1996 yillarda dastlabki tajribalarda qatnashgan 260 talabaning baholari bilan 2005–2007 yillarda qatnashgan 420 nafar talabaning baholari solishtirilganda o'zlashtirish darajasining sezilarli o'sishi aniqlangan.

Turkiyadagi Istanbul universiteti hamda BAAdagi Kornel tibbiyot universitetida esa virtual laboratoriyalar orqali biokimyo fanini o'qitish tajribasi qo'llanmoqda. Talabalar maxsus virtual muhitda real tajribalarni takrorlab, fan va texnologiyadagi so'nggi yutuqlarni amalda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Shvetsiyaning Chalmers Texnologiya Universitetida faol o'qitish va o'zaro tekshirish asosidagi ta'lim yondashuvi nazariy bilimlarni o'zlashtirishda samarali natijalar bergan. Talabalarning imtihon natijalari shuni ko'rsatadiki, darsning faollikni oshiruvchi qismlari klassik ma'ruzalarga qaraganda yaxshiroq natija bergan.

Mazkur tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, tibbiy biokimyo fanini o'qitishda elektron va interaktiv texnologiyalar, gibrid metodlar, virtual laboratoriyalar, tanqidiy fikrlashni rag'batlantiruvchi metodlar talabalarning faolligini, mustaqil fikrlashini, ilmiy-ijodiy salohiyatini oshiradi.

Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish uchun quyidagi omillarni inobatga olish muhim:

- O'qituvchilarning AKT vositalarini o'zlashtirishi va tegishli metodik materiallarni ishlab chiqishga tayyorligi;
- Talabalar qiziqishini rag'batlantiruvchi interaktiv usullarni joriy etish;
- Dars muhitida ochiq va muloqotga tayyor atmosfera yaratish;

- An'anaviy va zamonaviy metodlarning oqilona uyg'unlashtirilishi.

Shu o'rinda, quyidagi 1-jadvalda an'anaviy va zamonaviy ta'lim muhitlari o'rtasidagi farqlar taqqoslab berilgan.

• 1-jadval

• Turli ta'lim muhitini xususiyatlar bo'yicha taqqoslash

Xususiyatlari	An'anaviy ta'lim muhiti	Zamonaviy ta'lim muhiti
Motivatsiya	Jamiyatda moslashish uchun bilim olish	O'zini-o'zi boshqarish, mustaqil ta'lim olishga intilish
Axborot tabiati	O'zgalarning g'oyalarini, tayyor shablonlarni va standart yechimlarni manipulyatsiya qilish	Axborot mustaqil ravishda olinadi va o'z kontekstida talqin qilinadi
Bilim olish jarayoni	«Men qilgandek qil» - g'oyasi asosida o'rganish	O'z-o'zini tashkil qilish, o'zgartirish, kashfiyot
Munosabat	Subyekt-oyekt: shaxs – o'rganish obyekti	Subyekt-subyekt: inson bilish va ijod subyektidir
Natijalar	Rejalashtirilgan, ma'lum	Ehtimoliy, noma'lum
Texnologiyalar	Taqlid, reproduktiv	Ijodiy, muammoli
O'qituvchining funksiyalari	Ta'sir, hukmronlik	Qo'llab-quvvatlash, birgalikda ishlash
Talabadagi kompetensiyalar	Akademik bilimlar to'plami, algoritmlar, shablonlar	O'zini ko'rsata bilish, aks ettirish, istiqbol va tadqiqot uchun motivatsiya

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida “Biokimyo” fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar kompetentligini samarali shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Bu esa nafaqat bilim berish, balki talabalarning kasbiy identifikatsiyasi va ilmiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning «**Biokimyo fanini o'qitish orqali talabalarda kompetensiyani shakllantirishning ilmiy asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida biokimyo fanidan talabalarning kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun zarur komponentlar, mezonlar va ko'rsatkichlarni takomillashtirish maqsadida yaratilgan o'quv-amaliy didaktik vositalarning zaruriy tavsilotlari yoritilgan. Biokimyo fanini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetentligini zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalashtirish metodik tizimi talablari keltirilgan bo'lib, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan didaktik materiallarning bu kontentlarga mosligi ko'rsatilgan. Shuningdek, biokimyo fanini o'qitishda loyihalashtirish ta'lim texnologiyalarining mazmuni, shakli va metodikasi keng yoritilgan. Tibbiyot oliy ta'limi jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot va kasbiy faoliyatga tayyorlanishida biokimyo fanini o'qitishda qo'llanilayotgan turli vositalar, o'quv-metodik qo'llanmalar va didaktik materiallarning samaradorligi hamda ularni tayyorlash jarayoni tahlil qilingan. Zamonaviy yondashuvlar asosida biokimyo fanidan o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish yo'llarida nazariy materiallarning o'zgaruvchan taqdimotini o'z ichiga olgan o'qitish shakllari, ketma-ket topshiriqlar to'plami, vazifalari bilan tibbiyot oliy ta'limdagi talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talabalarining biokimyo fanidan kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida loyihalashtirish nazariy asoslariga qaratdik:

1. Kompetentlik yondashuvi: Talabaning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirib, ularni amaliyotda mustaqil qo'llay olishi. Bu yondashuvda ta'lim jarayoni shunchaki bilim

berishga emas, balki amalda qo'llay olishga, kasbiy muammolarni hal eta olishga yo'naltiriladi.

Asosiy elementlari:

Bilim: Talaba nazariy jihatdan biokimyo fanidagi tushunchalarni biladi (masalan, fermentlar, hujayra metabolizmi va b.).

Ko'nikma: Bilimlarni laboratoriyada yoki tahliliy ishda qo'llay oladi (masalan, qon tarkibini analiz qilish).

Malaka: Muayyan holatda to'g'ri qaror qabul qilish va natijalarni tahlil qila olish.

Mustaqil faoliyat: Klinik holatlarni o'zi mustaqil tahlil qilib, biokimyoviy asosini tushuntiradi.

Amaliy qo'llash: O'rgangan nazariy bilimni real hayotdagi muammolarni hal etishda ishlatadi.

Natija: Talaba – faqat biladigan emas, qo'llay oladigan mutaxassisga aylanadi.

2. Biokimyo fanining o'ziga xosligi: Tibbiyot fanlari ichida fundamental o'rin tutadi, kasbiy bilimlarning asosi hisoblanadi.

Biokimyo – tibbiyotda asosiy va fundamental fanlardan biri bo'lib, boshqa fanlar (farmakologiya, patologiya, klinik diagnostika) uchun tayanch hisoblanadi.

Nima uchun muhim?

Fundamental fan: Biologiya va kimyoning birikmasi, hayotiy jarayonlarni molekulyar darajada tushuntiradi.

Klinik fanga asos bo'ladi: Masalan, diabetni tushunish uchun glyukoza almashinuvini bilish kerak.

Tibbiy qarorlar uchun zarur: Laboratoriya tahlillarini talqin qilishda biokimyoviy bilimlar talab qilinadi.

Natija: Biokimyo bilimlari – shifokorning analitik fikrlashi va klinik qaror qabul qilishi uchun zarur baza.

3. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: AKT vositalari, virtual laboratoriyalar, simulyatsiya dasturlari, gamifikatsiya, problemaga yo'naltirilgan ta'lim (PBL) va boshqalar.

Bugungi ta'limda an'anaviy usullar yetarli emas. Shu sababli interaktiv, raqamli va zamonaviy yondashuvlar kerak.

Asosiy innovatsion texnologiyalar:

AKT vositalari: Video darslar, onlayn testlar, elektron kitoblar – masofaviy va o'zlashtirishga qulay vositalar.

Virtual laboratoriyalar: Tajribalarni simulyatsiya qilish imkonini beradi (qon tahlilini virtual bajarish).

Simulyatsiya dasturlari: Biokimyoviy jarayonlarni vizual ko'rish va tahlil qilish imkonini beradi (masalan, Oqsil va aminokislota almashinuvi).

Gamifikatsiya: O'yin elementlari orqali o'rganish.

PBL – problemaga yo'naltirilgan ta'lim: Real klinik holatni tahlil qilish orqali o'rganish (masalan, bemorning holatidan biokimyoviy sababni aniqlash).

Natija: Talaba – faol, mustaqil fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas bo'ladi.

Kompetensiyani rivojlantirish komponentlari quyidagilardan iborat:

1. Motivatsion komponent: talabaning fanga bo'lgan qiziqishi va ichki rag'bati. Ta'lim jarayonida talabada mustahkam kompetensiyalarni shakllantirish, birinchidan, uning motivatsion holatiga bog'liq bo'ladi. Motivatsion komponent – bu talabaning o'rganilayotgan fan, faoliyat va kasbiy yo'nalish bilan bog'liq ichki ehtiyoji, qiziqishi, rag'bati va maqsadga erishish istagini ifodalaydi. Biokimyo fani singari tibbiyot oliy ta'limida murakkab va bir nechta

fanning birlashmasi bo'lgan fanlarni samarali o'zlashtirish uchun talabanning fanga nisbatan ichki motivatsiyasini hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2. Kognitiv komponent: asosiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish. Kognitiv komponent - bu talabanning bilim olish, idrok etish, tushunish, xotirada saqlash, tahlil qilish va amalda qo'llay olish qobiliyatlarini ifodalovchi didaktik tarkibiy qismidir. Bu komponent talabanning fanga oid nazariy bilimlar tizimini shakllantirish orqali uning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Biokimyo fanida kognitiv komponentning asosiy maqsadi – talabaga tirik organizmlarda kechadigan molekulyar darajadagi biologik jarayonlarni tushuntiruvchi asosiy nazariy bilimlarni yetkazishdir. Bu bilimlar tibbiy amaliyotda kasalliklar patogenezini, laborator analizlar natijalarini tahlil qilish va dori vositalari ta'sirini tushunish uchun zarurdir.

3. Amaliy komponent: laboratoriya ishlari orqali bilimlarni mustahkamlash. Amaliy komponent – bu talabanning nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari va tajribalar orqali mustahkamlash, real sharoitda qo'llay olish, kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan kompetensiya tarkibiy qismidir. Bu komponent, ayniqsa, tibbiyot ta'limida muhim hisoblanadi, chunki kasbiy faoliyati ko'proq amaliy ko'nikmalarga tayanadi.

4. Refleksiv komponent: o'z faoliyatini baholash va tahlil qilish qobiliyati. Refleksiv komponent – bu talabanning o'z bilim, ko'nikma va amaliy faoliyatini mustaqil ravishda tahlil qilish, baholash, natijadan xulosa chiqarish va o'zini takomillashtirishga yo'naltirilgan shaxsiy qobiliyatdir. Bu komponent kompetensiyaga asoslangan ta'limda asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi.

5. Kommunikativ komponent: jamoaviy ishlash va muloqot ko'nikmalari. Kommunikativ komponent – bu talabalarning ilmiy va kasbiy faoliyatda samarali muloqotga kirishish, o'z fikrini aniq ifodalash, guruhda ishlash, hamkorlikda qaror qilish, tibbiy muhitda etika va deontologik me'yorlarga rioya qilish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

6. Tahliliy-kompozitsion komponent: muuammoli vaziyatlarda yechim topish. Tahliliy-kompozitsion komponent – bu talabada biokimyoviy jarayonlar va klinik holatlarni mantiqiy tahlil qilish, muuammoli vaziyatlarni tahliliy yo'l bilan anglash, ularni kompleks baholash va ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tarkibiy qismidir.

Mazkur komponentlarga mos ravishda quyidagi mezonlar belgilandi:

1. Nazariy bilim darajasi – bu talabalar tomonidan fan doirasidagi asosiy tushuncha, qonuniyat, prinsip va konsepsiyalarni egallash darajasini anglatadi. U talabanning bilimlar hajmi, mazmunini tushunish chuqurligi, ilmiy tafakkur darajasi va o'rganilgan materialni qo'llay olish qobiliyati orqali aniqlanadi. Biokimyo fanida nazariy bilim darajasi shunchaki ma'lumotlarni yodlash emas, balki ularni kasbiy faoliyati bilan bog'lab bilish salohiyatidir.

2. Amaliy ko'nikmalar darajasi – bu talabanning nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay olish, laboratoriya asbob-uskunalar bilan ishlash, biokimyoviy tajribalarni mustaqil bajarish va natijalarini tahlil qila olish darajasini ifodalaydi.

3. Mustaqil ishlash salohiyati – bu talabanning o'z bilim darajasini o'zi baholab, kerakli bilim va ko'nikmalarni mustaqil tarzda egallash, o'rganilgan ma'lumotlarni amaliyotda qo'llay olish, muammolarni o'zi hal qilish va natijalari bo'yicha xulosa chiqarish qobiliyatidir.


4. Jamoaviy ishlashda ishtirok – bu talabalar tomonidan birgalikda maqsadga yo'naltirilgan holda bilim olish, muuammoli vazifalar yechimini ishlab chiqish, natijalarini tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish qobiliyatidir.

5. Refleksiya qilish va o'zini baholash darajasi – bu talabanning o'z ta'limiy faoliyati, bilim

darajasi, ko'nikma xatti-harakatlarini tahlil qilish, baholash va keying bosqichda ularni takomillashtirish yo'llarini aniqlay olish qobiliyatidir.

Biokimyo fanini o'qitish jarayonida talabalarning bilim olishini faollashtirish, yo'nalishlariga mos ravishda o'qitishda bevosita foydalaniladigan bo'limlarni amaliy mashg'ulotlarga yo'naltirish, ularning murakkab fanni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish bilan birga har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olish shu fandan dars beradigan pedagoglarning asosiy vazifasi hisoblanadi. O'qitishning yangi sifati o'qituvchi faoliyatini yangi mazmun bilan to'ldirishni talab qiladi. Biokimyoni o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish o'quv jarayonini tashkil etishda o'zgarishlarni, o'qitish shakllari va usullarini qayta ko'rib chiqishni talab qildi.

Talaba biokimyo fanining ba'zi muhim tushunchalarini o'zlashtirishi uchun va amaliy darsda faol qatnashishini ta'minlash maqsadida animatsion taqdimotlar ishlab chiqish texnikasidan tashqari, didaktik o'yin raqamli resurslarining imkoniyatlaridan foydalanishni taklif qilamiz. Talabalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kalit so'zlari asosida yaratilgan smart xaritasi interaktiv elementlar o'quv jarayonida simulyator va o'z-o'zini nazorat qilish vositalari sifatida xizmat qiladi. Bunda aniq tanlangan kalit so'zlar katta ahamiyatga ega. Smart xaritasi yordamida ma'lumotni tartibga solish, yaxshiroq tushunish, eslab qolish va kasbiy faoliyat bilan bog'lash osonlashadi. Amaliyot darslarida bunday xaritalardan foydalanish talabalarning faol ishtirokini rag'batlantirib, guruhda ishlash orqali hamkorlikni rivojlantiradi (1-rasm).



1-rasm. "Aminokislota va oqsil almashinuvi biokimyosi" mavzusi uchun smart xarita

Dissertatsiyaning «**Biokimyo fanidan talabalar kompetentligini zamonaviy yondashuv asosida loyihalashtirish metodikasi**» deb nomlangan uchinchi bobida biokimyo fanini o'qitishda masofaviy, virtual, smart va 3D texnologiyalaridan, mustaqil ta'lim olishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ijobiy natija berishi va zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalashtirish modelini nazariy dallillarga asoslanganligi yoritilgan.

Masofaviy ta'lim sharoitida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Blended Learning (aralash o'qitish) usulini qo'llash, ya'ni an'anaviy darslarni onlayn ta'lim bilan birlashtirish talabalar uchun qulaylik yaratadi. Gibrid mashg'ulotlarni tashkil qilishda talabalarning biokimyo fanidan kompetentligini zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalashtirish metodik yondashuviga qaratdik. Bunda loyihalashtirish bosqichlarini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirish taklif qilingan:

1. Diagnostika: talabalarning hozirgi bilim darajasi va kompetentligini aniqlash, ya'ni o'quv jarayonini rejalashtirishdan oldin real holatni baholash.

2. Maqsadli rejalashtirish: kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan o'quv mazmunini aniqlash.

3. Zamonaviy yondashuvlarni tanlash: interaktiv o'qitish usullari.

4. Monitoring va baholash: talabalarda kompetentlikni formativ va summativ baholash orqali tahlil qilish.

Tavsiya etiladigan zamonaviy yondashuvlar:

1. Flipped classroom (teskari sinf): biokimyo fanining nazariy qismini mustaqil o'zlashtirib, darsda kasbiga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechimi ustida ishlash.

2. Simulyatsiya va interaktiv modellar asosida o'qitish: biokimyoviy jarayonlarni vizualizatsiya qilish.

3. Loyihaviy faoliyat (project-based learning): talabalarning real hayotdagi klinik holatlar asosida biokimyoviy tahlil loyihalarini ishlab chiqishi. Bemorning klinik tashxisini tahlil qilib, biokimyoviy jihatdan asoslab berish.

4. Gamifikatsiya: raqobat asosida o'quv jarayonini samaradorligini oshirish.

